**“TASDIQLAYMAN”**

Urganch davlat universiteti rektori

_______ **B.I. Abdullayev**

“18” mart 2022-yil

**Urganch davlat universiteti va professional ta’lim muassasalarida korrupsiyaviy xatarlarni aniqlash va ularni bartaraf etish hamda korrupsiyani oldini olish bo‘yicha**

## YO‘L XARITASI

| T/r | Chora tadbirlar nomi | Amalga oshirish mexanizmlari | Muddati | Mas’ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|
| 1. | Urganch davlat universitetida korrupsiyaga qarshi kurashish komplayens nazorat tizimini joriy etish bo‘yicha tizimli ishlarni amalga oshirish. | 1. Korrupsiyaga qarshi kurashish komplayens nazorat tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha meyoriy hujjatlar bilan xodimlarni tanishtirish;<br>2. Korrupsiyaga qarshi murosasizlik madaniyatini shakllantirish uchun targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borish;<br>3. Xodimlarni korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlarini oshirish maqsadida turli darajadagi malaka oshirish kurslarini yo‘lga qo‘yish;<br>4. Xodimlar o‘rtasida manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish bo‘yicha yillik deklaratsiyalarni olish. | 2022 yil aprel-may<br>2022 yil davomida<br>doimiy<br>2022 yil mart-aprel | Urganch davlat universiteti rahbari, korrupsiyaga qarshi kurashishga mas’ul, tarkibiy tuzilmalar rahbarlari, bosh yuristkonsult, professor-o‘qituvchilar |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 2. | Urganch davlat universiteti tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash choralarini ko‘rish. | 1. Belgilangan vazifa va funksiyalar (vakolatlar)ni amalga oshirishda yuzaga keladigan korrupsiyaviy havf-xatarlarni majburiy baholash ishlarini o‘tkazish.<br>2. Korrupsiya xavfiga eng ko‘p moyil bo‘lgan funksiya va lavozimlar ro‘yxatini tuzish.<br>3. Korrupsiyaga qarshi kurash dasturini ishlab chiqish va uni amalga oshirish choralarini ko‘rish. | 2022 yil davomida | Komplayens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi, Xodimlar bo’limi, bosh yuristkonsult, Auditor |
| 3. | UrDU tarkibiy bo‘linmalari (fakultetlar, kafedralar) o‘rtasida korrupsiyaga qarshi reytingni joriy qilish | 1. Korrupsiyaga qarshi reyting *(Antikorrupsion va odob-axloq qoidalariga xodimlar va talaba-o‘quvchilarning rioya etishi, tarkibiy bo‘linmada korrupsion holatning aniqlanmaganligi, korrupsiyaga qarshi trening va uchrashuvlar o‘tkazilganligi, turli darajadagi so‘rovnomalar natijalariga ko‘ra)* ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish;<br>2. Korrupsiyaga qarshi reytingni o‘tkazish va natijalarini muhokama qilish. | 2022 yil mart-may<br>2022 yil davomida | UrDU rektori, tarkibiy tuzilmalar rahbarlari, bosh yuristkonsult, auditor, korrupsiyaga qarshi kurashishga mas’ul |
| 4. | UrDU professor-o‘qituvchilari (pedagoglari) uchun namunaviy kasb odobnomasini ishlab chiqish. | 1. UrDU strukturasi kesimida har bir professor-o‘qituvchilari (pedagoglari) uchun Namunaviy kasb odobnomasini ishlab chiqish va tasdiqlash;<br>2. Kasb odobnomasiga rioya etilishi bo‘yicha muntazam ravishda monitoring olib borish. | 2022 yil aprel<br>2022 yil davomida | UrDU rektori, tarkibiy tuzilmalar rahbarlari, xodimlar bo’limi, bosh yuristkonsult, auditor, korrupsiyaga qarshi kurashishga mas’ul |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 5. | UrDUga nomzodlarni ishga qabul qilishda shaffoflikni ta'minlash. | 1. UrDUga ishga qabul qilinayotgan nomzodni korrupsion va boshqa turdagi huquqbuzarliklar bo'yicha tekshirishni amalga oshirish;<br>2. Nomzodlarni ishga qabul qilishda elektron dasturiy tizimdan foydalanish. | Doimiy | UrDU rektori, tarkibiy tuzilmalar rahbarlari, hodimlar bo'limi, bosh yuristkonsult, auditor, korrupsiyaga qarshi kurashishga mas'ul |
| 6. | UrDUda talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi shaffofligini ta'minlash. | Yakuniy nazorat turini o'tkazishni va mazkur nazorat turi bo'yicha talabaning bilimini baholashni muayyan guruhning o'quv mashg'ulotlarini olib borishga mas'ul bo'lmagan professor-o'qituvchi yoki mazkur muassasaga aloqador bo'lmagan shaxslar tomonidan amalga oshirilishini qat'iy ta'minlash. | 2022 yil davomida | UrDU rektori, o'quv ishlari bo'yicha prorektori |
| 7. | UrDUda talabalar o'rtasida korrupsiyaga oid holatlar yuzasidan turli (onlayn yoki oflayn) so'rovnomalar o'tkazib borish. | 1. Har semestr yakunida UrDUdagi Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limlari bilan jamoatchilikni jalb qilgan holda, talabalar orasida ta'lim muassasasida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha so'rovnomalar o'tkazish;<br>2. So'rovnomalar natijalarini kollegial tarzda muhokama qilish, aniqlangan salbiy holatlarni bartaraf etish bo'yicha amaliy tadbirlarni amalga oshirish. | 2022 yil mart-oktabr<br>muntazam | UrDU rektori, o'quv ishlari bo'yicha prorektori, fakultet dekanlari, ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi, Korrupsiyaga qarshi kurashish komplayens nazorat tizimini boshqarish bo'limi |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 8. | UrDU faoliyatida sof akademik-ijodiy muhitni shakllantirish | UrDUda o‘quv va ilmiy jarayonda mavjud «plagiat» illatini oldini olishga xizmat qiluvchi dasturlardan foydalanish. | 2022 yil davomida | UrDu rektori, o‘quv ishlari bo‘yicha prorektor, ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari, Raqamli ta’lim texnologiyalar markazi (RTTM) rahbari |
| 9. | Yoshlarda korrupsiyaga qarshi kurashish faol dunyoqarash va mustahkam fuqarolik pozitsiyasini shakllantiruvchi chora-tadbirlarni amalga oshirish. | 1. Korrupsiyaga qarshi kurashish mavzusida ta’lim muassasalari talaba-o‘quvchilari uchun huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari, jamoatchilik vakillari, taniqli shaxslar va diniy ulumolar ishtirokida ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar tashkil etish.<br>2. Korrupsiyaga qarshi kurashish mavzusida yoshlar o‘rtasida “Biz korrupsiyaga qarshimiz”, “Biz tahsil olayotgan ta’lim muassasasida korrupsiyaga o‘rin yo‘q” mavzularida ijodiy ish (bannerlar, rasmlar, maqolalar, insholar) tanlovlari, har xil fleshmob va xeshteglar o‘tkazish. | 2022 yil davomida<br>muntazam | UrDU rektori, yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlari bo‘yicha mas’ullar, korrupsiyaga qarshi kurashishga mas’ul |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 10. | Talabalar turar joylariga joylashtirishning ochiq va shaffof mexanizmlarini joriy etish. | 1. TTJga muhtoj talabalarni belgilangan talablardan kelib chiqqan holda yotoqxonaga joylashtirishning elektron navbat tizimini joriy etish;<br>2. Talabalar turar joyi to‘g‘risidagi Nizomni, ayniqsa talabalarni turar joylariga joylashtirishda mavjud o‘rinlardan ehtiyoj va talab yuqori bo‘lgan holatlarda belgilangan mezonlar ketma-ketligi asosida talabgorlarga ustunlik berish talablarini barcha tanishishi uchun muassasa rasmiy veb-saytiga va hamma uchun ko‘rinarli joydagi axborot stendlarida joylashtirish. | 2022 yil sentabr<br>muntazam | UrDU rektori,<br>Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektori, RTT Markazi mas’uli |
| 11. | UrDUda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish. | 1. UrDUda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish bo‘yicha xorijiy tajribani o‘rganish va takliflar tayyorlash;<br>2. Takliflar asosida tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish. | 2022 yil aprel<br>doimiy | UrDU rektori, Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha mas’ullar, korrupsiyaga qarshi kurashishga mas’ul |
| 12. | UrDUda korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha “tengdosh tengdoshga” loyihasini yo‘lga qo‘yish. | 1. UrDU rektori, pedagog va xodimlar hamda talaba-yoshlar orasidan huquqiy savodxonligi yuqori, o‘zining liderlik qobiliyatlarini namoyon eta oladigan, tengdoshlarini o‘z ortidan ergashtira oladigan xodim va talaba-o‘quvchilarni korrupsiyaga qarshi kurashishga mas’ul targ‘ibotchi etib belgilash;<br>2. Mas’ul targ‘ibotchilar faoliyatini tashkil etishga oid o‘quv seminar va treninglar tashkil etish. | 2022 yil mart<br>muntazam | UrDU rektori, yoshlar masalalari bo‘yicha mas’ullar, korrupsiyaga qarshi kurashishga mas’ul |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 13. | Budjet mablag‘larining maqsadli sarflanishi va davlat xaridlarini amalga oshirish ustidan masofaviy nazoratni ta’minlash. | 1. UrDUda ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash maqsadida budjet mablag‘larining sarflanishi va davlat xaridlari bo‘yicha ma’lumotlarni ta’lim muassasasining rasmiy veb-saytiga joylashtirishni tashkil etish.<br>2. Amalga oshirilayotgan xaridlarni, tenderlarni, auksionga qo‘yish jarayonini, shuningdek kontragentlarni tekshirib borish.<br>3. Ta’lim obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal ta’mirlashda va jihozlashda budjet mablag‘laridan maqsadli sarflanishi ustidan monitoring va nazorat tadbirlarini amalga oshirish. | Har chorakda<br>muntazam<br>doimiy | UrDU rektori, iqtisodiy va moliyaviy masalalari bo‘yicha mas’ullar, korrupsiyaga qarshi kurashishga, auditor |
| 14. | UrDUda ishga qabul qilish jarayonlarining shaffofligini ta’minlash. | UrDUga ishga qabul qilishni ochiq tanlov asosida amalga oshirish hamda tanlov doirasida o‘tkaziladigan sinov tadbirlarini Internet tarmog‘i orqali real vaqt rejimida kuzatishni nazarda tutuvchi tartib joriy etiish. | doimiy | Xodimlar bo’limi , bosh yuristkonsult, RTTM mas’uli |
| 15. | UrDU xamda tizim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan xodimlarning rotasiyasini tashkil etish. | Tizimda korrupsiyaviy holatlarini oldini olish, shuningdek ish samaradorligini oshirish maqsadida rotasiya usulidan foydalanish. | 2022 yil davomida | Xodimlar bo’limi, UrDU tizim tashkilotlarining xodimlar bo‘limi |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 16. | UrDU rasmiy veb-saytida ochiq ma'lumotlar sifatida joylashtirilishi kerak bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlarni e'lon qilish. | Ochiq ma'lumotlar sifatida joylashtirilishi kerak bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlar ro'yxatiga kiritilgan axborotlar rasmiy veb-saytning bosh sahifasida alohida bo'limga tizimlashtirilgan holda joylashtirish. | doimiy | Axborot xizmati, UrDU tizimidagi tashkilotlar rahbarlari, korrupsiyaga qarshi kurashishga mas'ul xodimlar, RTTM mas'ul |
| 17. | Professional ta'lim muassasalari pedagog xodimlari va o'quvchilari o'rtasida korrupsiyaga qarshi so'rovnomalar o'tkazish. | 1. Pedagog-xodimlar va o'quvchilar o'rtasida so'rovnomalar o'tkazishni yo'lga qo'yish;<br>2. So'rovnomalar natijalarini kollegial tarzda muhokama qilib borish. | 2022 yil<br>mart oyidan boshlab doimiy | Akademik lisey va professional ta'lim muassasalari direktorlari |
| 18. | Korrupsion holatlar to'g'ridan-to'g'ri xabar qoldirish imkoniyatiga ega bo'lgan rasmiy telegram bot murojaat kanalini ishga tushirish. | 1.Akademik lisey va professional ta'lim muassasalari rasmiy bot murojaat kanalini ishga tushirish;<br>2. Professional ta'lim muassasalarining o'qituvchi va o'quvchilarni bot kanalidan xabardor qilish;<br>3. Botga kelib tushgan murojaatlarni o'rganish va tegishli choralarni ko'riladi. | 2022 yil<br>mart<br>doimiy | Akademik lisey va professional ta'lim muassasalari direktorlari, O'quv uslubiy boshqarmasi Akademik lisey va texnikumlarga metodik yordam berish sektori mas'ul xodimi |